

VOLUME II | ISSUE 3 | MAY-JUNE | 2024

Journal of
RESEARCH
and **INNOVATIONS**

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР | ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ

SPECIAL ISSUE

ISSN: 2181-4058

Available online at www.imfaktor.com

 **IMFAKTOR**
Science driven pages

ISSN: 2181-4058
DOI Journal 10.56017/2181-4058

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ
ТОМ-II, НОМЕР 3

JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS
VOLUME-II, ISSUE 3

ТОШКЕНТ - 2024

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

№ 3 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4058-2024-3>

Бош муҳаррир:

Салимов А. – архитектура фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Кадиров К. – филология фанлари номзоди, доцент

Таҳририят аъзолари:

1. Закиров Х. – қишлоқ хўжалиги фанлари номзоди, профессор
2. Гулмуродов Р. – қишлоқ хўжалиги фанлари доктори, профессор
3. Якубжон Хатамович Юлдашов – қишлоқ хўжалик фанлари номзоди, профессор,
4. Камалова Дильфуза Энуаровна – филология ф.б.ф.д (PhD)
5. Раззақов Шухрат Турсунович – техника фанлари номзоди, доцент
6. Чоршанбиев Шухрат Махматмуродович – техника ф.б.ф.д. (PhD), доцент
7. Нематов Эркинжон Ҳамроевич – техника ф.б.ф.д (PhD), доцент
8. Бобокалонов Одилшоҳ Остонович – филология ф.б.ф.д (PhD)
9. Абдуллаева Садокат Шоназаровна – техника ф.б.ф.д (PhD)
10. Шарипов Козимжон Комилжонович – техника ф.б.ф.д (PhD)
11. Норматов Ғайрат Алижанович – техника ф.б.ф.д (PhD)
12. Бозорова Гульмира Зайниддиновна – филология ф.б.ф.д (PhD)
13. Убайдуллаев Фарход Бахтияруллаевич – қишлоқ хўжалиги ф.б.ф.д (PhD)
14. Каримова Дилафрўз Ҳалимовна Филология – филология ф.б.ф.д (PhD)
15. Маҳмудова Муаттар Мақсатуллаевна – филология ф.б.ф.д (PhD)
16. Юлдашева Дилафруз Махамадалиевна – филология фанлари доктори

“Тадқиқот ва инновациялар” журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054912-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Мазкур журнал 6 та халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун UIF 2023 = 7.1 “импакт-фактор” кўрсаткичига эга. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар хорижий мақолалар сифатида тан олинади.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: www.imfaktor.uz/com

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти, 2024 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2024 йил.

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

SABIROVA Nilufar Abdullayevna

*O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11213816>

TALABALARNING YOZMA NUTQINI O'STIRISHDA YOZMA ISHLARNING AHAMIYATI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada chet tilini o'rganayotgan o'quvchilarining yozma savodxonligini oshirishda darslar davomida tashkil etiluvchi yozma ishlarning ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi murakkab jarayon bo'lib, ona tili ta'limining maqsadi shu parametrdan mujassamlashadi. O'quvchining ona tili ta'limi jarayonida egallagan ko'nikma va malakalari u yaratgan matnda aks etadi. Bu parametr bo'yicha ta'lim sifatining natijasini baholashda o'qituvchi tomonidan o'quvchi egallagan quyidagi ko'nikmalarning darajasi aniqlangan.

Kalit so'zlar: nutq, yozma nutq, davlat ta'lim standartlari, o'quvchi, dars faoliyati, yozma ish, yozma savodxonlik, imlo savodxonligi, diktant, insho.

ПИСЬМЕННОСТЬ В РАЗВИТИИ ПИСЬМЕННОЙ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ ВАЖНОСТЬ РАБОТЫ

АННОТАЦИЯ

В этой статье мы рассмотрим письменную грамотность учащихся, изучающих иностранный язык. мнение о важности письменной работы, организуемой во время уроков ведутся. Умение изложить мысль в письменной форме-сложный процесс, и цель обучения родному языку воплощается в этом параметре. Навыки и умения, приобретенные учащимся в процессе обучения родному языку, отражаются в создаваемом им тексте. Это параметр качества образования при оценке результата определяется уровень следующих навыков, приобретенных учеником учителем.

Ключевые слова: речь, письменная речь, государственные образовательные стандарты, учащийся, курсовая деятельность, письменная работа, письменная грамотность, орфографическая грамотность, диктант, сочинение.

WRITING WHEN CULTIVATING THE WRITTEN SPEECH OF STUDENTS IMPORTANCE OF WORK

ANNOTATION

This article covers the written literacy of students studying a foreign language an idea of the importance of the written work organized during classes in raising maintained. The qualification of the statement of an opinion in writing is a complex process, and the purpose of native language education is embodied in this parameter. The skills and competencies that the student acquires in the process of education of his native language are reflected in the text created by him. The quality of education on this parameter when assessing the result, the level of the following skills acquired by the student was determined by the teacher.

Keywords: speech, written speech, state educational standards, student, lesson activity, written work, written literacy, spelling literacy, dictation, essay.

Har qanday davlat va jamiyat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi yoshlardir. Yoshlarning esa sog'lom, yetuk avlod bo'lib voyaga yetishida ta'lim sohasi asosiy poydevor vazifasini bajaradi, savodxonlik darajasini oshirishda "Ona tili" fani, shu jumladan, yozma ishlar asosiy o'rin egallaydi.

Ona tili ta'limi oldiga qo'yilgan maqsad o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgaralar fikrini anglashga va shu fikr mahsulini og'zaki va yozma shaklda savodli bayon qila olishga, savodxonlikka o'rgatishdan iborat [1, 2, 3].

DTS talabiga ko'ra ona tili ta'limining mazmuni:

- O'quvchining fikrlash salohiyatini, aqliy rivojlanishini, mantiqiy tafakkurini o'stirish;
- Moddiy borliqni tilning ifoda vositalari yordamida anglashga hamda fikr-o'ylari va his-tuyg'ularini ona tili imkoniyatlari doirasida bayon eta olishga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Yosh avlodda ijodiy tafakkur va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish muhimdir. O'quvchining o'quvmaterialini o'zlashtirishi murakkab jarayon bo'lib, til hodisalarini kuzata olish, izlanish, qiyoslash, umumiylik va alohidalikni aniqlash, farqlarni topish, tasnif etish, hukm chiqarish, qo'llash bilan bog'liq:

Kuzatish - berilgan topshiriq asosida til hodisalarini tahlil qilish;

Izlanish – o'ylash, xotirada tiklash, so'rash, lug'at, qomus, internet manbalaridan foydalanish asosida bilimlarni boyitish;

Narsa-hodisa mohiyatini qismlar sharhi orqali yoritish - har bir hodisani alohida-alohida sharhlay olish;

Qiyoslash - tizimdagi hodisalarni o'zaro taqqoslay bilish;

Umumiylikni aniqlash - hodisalarning o'xshash va umumiy tomonlarini aniqlash;

Farqlarni topish - hodisalarning o'xshash va umumiy tomonlarini aniqlash;

Tasnif etish – tizimdagi hodisalarni o'xshashlik va farqlari asosida guruhlarga ajratish;

Hukm chiqarish – hodisalar tizimi haqida umumlashma hukm, xulosa, qoida chiqara olish;

Alohidalikni aniqlash – o'rganilgan hodisalarning yondosh voqelik bilan munosabatlarini aniqlash;

Qo'llash – hodisalarni mustaqil ravishda yozma va og'zaki ko'rinishda sharhlab, ijodiy matn tuza olish;

Ijodiy tafakkur va mustaqil fikrlashning oliy ko'rinishi matn yaratishdir [4].

Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi murakkab jarayon bo'lib, ona tili ta'limining maqsadi shu parametrdan mujassamlashadi. O'quvchining ona tili ta'limi jarayonida egallagan ko'nikma va malakalari u yaratgan matnda aks etadi. Bu parametr bo'yicha ta'lim sifatining natijasini baholashda o'qituvchi tomonidan o'quvchi egallagan quyidagi ko'nikmalarning darajasi aniqlanadi:

- Fikrning mantiqiy izchillikda ifoalanganligi;
- Fikrlash, mavzuning murakkablik darajasi;
- Tavsifning mavzuga muvofiqligi va mazmuniy qiymati;
- Tavsifda tilning ifoda vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish darajasi;
- Imloviy (yozma) savodxonlik sifati.

Ko‘rinadiki, DTS talablariga ko‘ra o‘quvchilarda fikrni yozma shaklda bayon etish malakasini hosil qilish ona tili ta‘limining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Ona tili va adabiyot o‘quv fanlari sifatida nutq imkoniyatlarini birlashtirib, o‘quvchining fikr ifodalash malakalarini rivojlantiradi. Uni tilimizning go‘zal olamiga olib kiradi, nutqni yaxshilash, boyitish, unga badiiy bo‘yoq berish, nafasat bag‘ishlashda muhim ahamiyat kasb etadi [5, 6].

O‘quvchilarning yozma nutq malakasini shakllantirish - DTSning asosiy

- O‘quvchilarning yozma nutq malakasini shakllantirish:
- Husnixat;
- Yozma nazorat ishlari (diktant, bayon, insho);
- Grammatik qurilmalarni o‘z o‘rnida qo‘llay olish;
- Mavzu hamda rasmlar asosida yozma matn tuzish;
- Ta‘limiy o‘yinlar;
- Turli mashqlarni bajartirish.

Yozma nutq harf va so‘zlarning ma‘lum qonuniyat asosida o‘zaro birikuvi, tinish belgilari, har xil ajratishlar: abzaslar, paragraflar va gaplarni grammatik jihatdan aniq va tushunarli bayon qilish orqali voqelanadi.

Yozma nutq ustida ishlash og‘zaki nutqqa qaraganda ancha murakkab jarayondir. Chunki u o‘quvchidan grammatik va mazmunan jihatidan to‘g‘ri jumla qurishni, har bir so‘zni o‘z o‘rnida to‘g‘ri qo‘llashni, fikrni ixcham, izchil, ifodali, uslub jihatidan sodda va ravon ifodalashni, bayon qilingan fikrlar asosida xulosalar chiqarishni talab etadi. Bu nutq turning murakkab tabiati ham shundaki, u imlo, tinish belgilari va uslub bilan bog‘liq. So‘zni to‘g‘ri yozish, tinish belgilarini o‘rinli qo‘llash, fikrni uslub tabiatiga muvofiq bayon qilish o‘quvchidan katta mas‘uliyatni talab etadi.

Yozma nutq tekshiriladi, tuzatiladi, takomillashtiriladi, bu jihatdan u og‘zaki nutqqa qaraganda ancha qulay imkoniyatlarga ega. O‘quvchi yozma nutqdagi xato va kamchiliklar ustida ishlaydi, ularni bartaraf etadi, keyingi ishlarda bu xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘ymaslikka intiladi. Yozma nutqdagi imlo va tinish belgilari ustida ishlash matn mazmuni ustida ishlash bilan qo‘shilib, bir yaxlitlik hosil qiladi.

Yozma ish atamasi ikki xil ma‘noda qo‘llanadi:

1. Yozma ish - ilmiy xarakterdagi yozma ishlar, yozma shaklda bajariladigan nazorat turlari, topshiriqlar, ko‘chirib yozish. Nazoratning bu turi nafaqat filologiya, balki barcha sohalarga ham tegishlidir. Masalan, fizika, matematikaga oid yozma ishlar.

Bu tipdagi yozma ishlar o‘quvchilarni ilmiy bilim asoslari bilan qurollantiradi. Ilmiy xarakterdagi yozma ishlar uchinchi eng asosiy manba maktab darsliklaridir. talabi.

2. Yozma ish - yozma shaklda bajariladigan ijodiy matnlar (insho, ijodiy bayon), tinglab tushunish, xotira kuchini belgilash, tafakkur darajasi va fikrni yozma tarzda bayon etish ko‘nikmasini aniqlashga qaratilgan (bayon), so‘zma-so‘z tinglash va ayni tarzda yozma nutqda aks ettirish, imlo me‘yorlariga amal qilish darajasini bilishga mo‘ljallangan (diktant) matnlar.

O‘quvchini kasbga yo‘naltirish, muayyan sohalar haqida tasavvur va bilim hosil qilish har bir fan o‘qituvchisining burchi hisoblanadi. Yosh avlodni kasbga tayyorlovchi asosiy omil ona tili va adabiyot fanlaridagi matnlar, mashqlar va albatta, “Kim bo‘lsam ekan?”, “Men tanlagan kasb” kabi mavzulardagi dastlabki insholardir. “Insho” arabcha so‘z bo‘lib, “tashkil etish”, “yaratish”, “qurish”, “barpo qilish”, “ijod”, “bayon”, “tahrir” ma‘nolarini anglatadi [7].

Insho muallifning ma'lum bir mavzudagi bilim va tasavvurlarini, voqelikka munosabatini, mustaqil fikrini bayon qilish natijasida shakllanadigan yozma ish turidir.

Insho muallif tomonidan ijod etiladi, yaratiladi. Insho yozishda muallifdan fikr-mulohazalarini mantiqan izchil va badiiy jihatdan maqsadga muvofiq tarzda, adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda bayon etish talab qilinadi.

Insho mustaqil yaratiladigan o'ziga xos ijod mahsuli bo'lib, o'quvchi faoliyatining eng murakkab ko'rinishi hisoblanadi.

Inshoda o'quvchining o'zligi namoyon bo'ladi. Uning tafakkuri, dunyoqarashi, narsa, voqea-hodisalarga, o'zgalarga, jamiyatga munosabati, axloqiy-ma'naviy saviyasi, mustaqil turmushga tayyorgarlik darajasi aks etadi. Boshqacha aytganda insho o'quvchining qiyofasini o'zida aks ettiruvchi ko'zgidir. Insho o'quvchining ijodiy fikrlash darajasi, dunyoqarashi, adabiy til me'yorlarini nutqiy vaziyatlarda qo'llash imkoniyatlarini belgilovchi asosiy mezondir.

Insho tez fursatda o'rganiladigan yoki o'zlashtiriladigan yozma ish turi emas. Insho yozish ko'nikmalariga qisqa muddatda ega bo'lish qiyin, albatta. Yaxshi, har tomonlama maqsadga muvofiq insho ko'p yillik faoliyat mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Avvalo, ko'p mutolaa qilish, imlo lug'atlari, izohli lug'atlardan boxabar bo'lish, atroflicha bilimga ega bo'lish talab darajasida yoziladigan insholarga zamin yaratadi [8].

Insho belgilangan maqsadiga ko'ra ikki xil bo'ladi: ta'limiy insholar va sinov insholari.

Ta'limiy insholar - sinfda yoki uyda o'quvchi tomonidan yozilib, ijodiy fikr yuritishga, mavzuni to'g'ri bayon qilishga qaratiladi. Bunday insholarda biror yozuvchi yoki shoir ijodi, asarlari mazmuni, mavzu doirasi, badiiy ahamiyatini o'zlashtirish, o'quvchida fikrlash ko'nikmalari, qaror qabul qilish tezligi, voqelikka, shaxslarga, narsa-hodisaga baho berish malakasini shakllantirish maqsadi qo'yiladi. Ta'limiy insholar ham baholanadi, lekin bunday insholar bilimni aniqlashga emas, bilim berishga yo'naltiriladi.

Sinov insholari o'rganilgan mavzularga doir bilimlarni, insho yozish ko'nikma va malakalarini sinash hamda baholash uchun muayyan mavzular tugagandan so'ng, choraklar yoki o'quv yili oxirida nazorat ishi sifatida, davlat attestatsiyalarida, olimpiadalarda, ijtimoiy-gumanitar sohalarga doir tanlovlarda o'tkaziladi. Sinov insholari olingan bilim, ko'nikma va malakani baholashga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, bo'lajak mutaxassislarimizning yozma va og'zaki savodxonligi a'lo darajada bo'lishi kunning bosh masalasi darajasiga ko'tarilgan ekan, nafaqat ona tili va adabiyot darslarida, balki butun o'quv faoliyat davomida bunga erishishga o'z hissamizni qo'shishimiz kerak.

ИҚТИБОСЛАР. СНОСКИ. REFERENCES.

1. Nurmonov A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.-T. “Ilmi ziyo”. 2010.
2. O.Madayev, A.Sobirov, Z.Xolmanova, Sh.Toshmirzayeva, G.Ziyodullayeva, M.Shamsiyeva. YOZMA ISH TURLARI: INSHO, BAYON, DIKTANT. Toshkent. “Turon Zamin ziyo” - 2017.
3. Анорбоева С. А. Формирование переводческой компетентности (на примере: бакалавриат и магистратура) //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 2. – С. 337-348.
4. АНОРБОЕВА С. Формирование профессиональной компетентности переводчика //Journal of Research and Innovation. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 35-39.
5. ANORBOYEVA, S. (2023). “SHADOWING” METODI ORQALI ISPAN TILI MASHG‘ULOTLARIDA TALABALARDA TARJIMONLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH . Journal of Research and Innovation, 1(11), 3–6. Retrieved from <https://imfaktor.com/index.php/jorai/article/view/807>
6. Анорбоева С. А. СИСТЕМА ПОДГОТОВКИ ПЕРЕВОДЧИКОВ В ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА И СОВРЕМЕННАЯ МОДЕЛЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ПЕРЕВОДЧИКА //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2024. – Т. 4. – №. 4. – С. 11-22.
7. АНОРБОЕВА, С., & ШОДИКУЛОВА, Ш. (2023). К ПРОБЛЕМЕ РЕАЛИЗАЦИИ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ. Journal of Pedagogical and Psychological Studies, 1(3), 22–26. Retrieved from <https://imfaktor.com/index.php/jopaps/article/view/111>
8. АНОРБОЕВА, С. (2023). ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ ПЕРЕВОДЧИКА (НА ПРИМЕРЕ: БАКАЛАВРИАТ И МАГИСТРАТУРА). Journal of Pedagogical and Psychological Studies, 1(1), 120–127. Retrieved from <https://imfaktor.com/index.php/jopaps/article/view/524>
9. Aborboyeva S. ON THE CONCEPT OF TRANSLATION COMPETENCE AS A MULTISPECTIVE THEORETICAL CONCEPT //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2020. – Т. 8. – №. 8.
10. Solikha, A. (2024). DEVELOPMENT OF TRANSLATION COMPETENCE OF STUDENTS IN SPANISH LANGUAGE COURSES. ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР, 2(3), 9–12. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11178339>
11. ANORBOYEVA, S. (2024). DEVELOPMENT OF TRANSLATION COMPETENCE OF STUDENTS IN SPANISH LANGUAGE COURSES. Journal of Pedagogical and Psychological Studies, 2(3), 9–12. Retrieved from <https://imfaktor.com/index.php/jopaps/article/view/1263>

ISSN: 2181-4058
DOI Journal 10.56017/2181-4058

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ
ТОМ-II, НОМЕР 3

JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS
VOLUME-II, ISSUE 3

«Тадқиқот ва инновациялар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054912-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz